

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “USTOZ” HIKOYASIDAGI USTOZ OBRAZI BADIY TALQINI

Xolmurotova Gulinor Azmiddin qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

xolmurotovagulinor@gmail.com

+998888502605

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi Shukur Xolmirzayevning “Ustoz” hikoyasi tahlilga tortilgan. Yozuvchining inson muammolarini yoritishdagi badiiy mahorati, ustoz obrazining badiiy talqini, xarakter shakllanish jarayonlari, badiiy asar voqeligining ifodasi, inson psixologizmi masalalariga e’tibor qaratilgan. Ustoz obrazining badiiy ifodasi xususida ham fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, obraz, nutqiy xarakteristika, qahramon xarakteri, ijtimoiy muammo.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ШУКУРОМ ХОЛМИРЗАЕВЫМ ОБРАЗА УЧИТЕЛЯ В ПОВЕСТИ «УЧИТЕЛЬ».

Аннотация: В данной статье анализируется рассказ писателя Шукура Холмирзаева «Учитель». Уделяется внимание художественному мастерству писателя в освещении проблем человека, художественной интерпретации образа учителя, процессах формирования характера, выражении действительности художественного произведения, вопросам психологии человека. Высказывались мнения и о художественном воплощении образа учителя.

Ключевые слова: рассказ, образ, речевая характеристика, характер героя, социальная проблема.

SHUKUR KHOLIRZAYEV'S ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CHARACTER OF THE TEACHER IN THE STORY "TEACHER"

Abstract: *In this article, the story "Teacher" by writer Shukur Kholmirezayev is analyzed. Attention is paid to the artistic skills of the writer in illuminating human problems, the artistic interpretation of the image of the teacher, the processes of character formation, the expression of the reality of the artistic work, and the issues of human psychology. Opinions were also expressed about the artistic expression of the teacher's image.*

Key words: *story, image, speech characteristic, character of the hero, social problem.*

Kirish

XX asr adabiyotining yirik vakillaridan biri Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyanavisligida o'z o'rnini va so'ziga ega bo'lgan, ushbu janrda katta yutuqqa erishgan ijodkor sanaladi. Yozuvchi hikoyalarida, asosan, tabiat va inson munosabati hamda o'zaro uyg'unligi, shuningdek, jamiyat muammolarini mahorat bilan aks ettirilgan. Ularda hayot haqiqati, inson shaxsiyati ixcham va go'zal shaklda jozibali qilib ifodalanadi.

Ijodkorning "Ustoz" hikoyasi ham shunday asarlardan biri bo'lib, unda jamiyatda uchraydigan ayrim toifa kishilar shaxsiyati, ularning dunyoqarashi qalamga olingan. Qanday soha vakili bo'lsinki, uni, avvalo, ustoz tarbiyalagan bo'ladi. Kishi hayotida ustozlar, murabbiylarning o'rnini beqiyos. Hikoyada o'zini eng yaxshi ustozlardan deb biladigan, sirtidan jonkuyar inson bo'lib ko'rinadigan, holbuki shogirdlari orqasidan zimdan ish ko'rib, ularning o'sishiga yo'l

qo‘ymaydigan kishi haqida hikoya qilinadi. Asar bosh qahramoni - o‘ziga “ustoz” nomini olgan yozuvchi shaxs. Qahramon bir vaqtlar bo‘lgan shogirdi va uning taqdiri haqida yo‘ldagi hamrohiga so‘zlab beradi. Yozuvchi qahramonimizning nutqidan, uning aslida qanday ustoz ekanligi, ustozlikni qanday tushunishini bilib olamiz.

Adabiyotlar tahlili

Shukur Xolmirzayev ijodini o‘rganish yuzasidan ko‘pgina ilmiy izlanishlar olib borilgan. B. Nazarovning “Shukur Xolmirzayev” nomli ijodiy portreti, H. Karimovning “Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti” adabiy risolalari shular jumlasidandir. Shuningdek, Shukur Xolmirzayev hikoyalari to‘g‘risida U. Normatov, S. Mamajonov, Q. Yo‘ldoshev, H. Boltaboyev, R. Qo‘chqorovlarning maqolalari, Komil Hamroyevning “Shukur Xolmirzayev hikoyalarida kompozitsiya” nomli ixcham risolalari e‘lon qilingan.

Adibning zamondosh olim va adabiyotshunoslari tomonidan yozilgan “Shukur Xolmirzayev zamondoshlari xotirasida” (2010) kitobi orqali yozuvchining mahorati, adabiyotimizga o‘zining yorqin ijodi bilan hissa qo‘shganligi haqidagi xulosalari, xotiralari bilan tanishish mumkin. Olim Toshboyevning “Abadiy zamondosh” (2018) kitobida esa Shukur Xolmirzayev asarlarining yozilish tarixi va sabablari, yozuvchi shaxsiyati haqida fikr yuritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani yozishda va oldiga qo‘ygan maqsadni yoritib berishda badiiy asar tahlilining kontekstual tahlil va immanent tahlil kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar

Hikoyani tahlilga torta ekanmiz, avvalo, rivoya kompozitsiyasidagi roviy, ya’ni hikoya qilib beruvchi shaxs kim ekanligini aniqlashtirib olsak. “Ustoz”

hikoyasida Shukur Xolmirzayev roviy-personaj usulidan unumli foydalangan va asar voqealari bosh qahramon bo'lgan yozuvchi shaxs tomonidan so'zlab beriladi.

Adib Shukur Xolmirzayev hikoya boshlanmasidanoq bizga “ustoz” obrazining xarakterini, o'zi uchun haq deb bilgan qarashini tanishtiradi. E'tibor beradigan bo'lsak, ushbu shaxsning bir gapi ikkinchisini rad etadigan, laganbardor kimsa ekanligini darrov payqaymiz. Uning tili qisiq joyi yo'q, aksincha hamma narsasi: mashina, dachalari bor edi, kitoblari chiqib turgan edi. Bir qarashda yozuvchi uchun bundan ortiq baxt yo'qdek. Ammo masala uning hamma narsasi yetarli ekanida emas, balki bularga qanday yo'sinda erishganligida! U o'z og'zi bilan “nimadan qo'rqaman”, “birovdan tili qisiq joyim yo'q” deb turib, so'z so'zlashda ehtiyotkorlikni yoqlaydi. Eng qizig'i, haqiqatni aytishni tilning suyaksizligidan deb hisoblaydi. Demak, qahramon nafaqat atrofdagilarning yonida, balki yozgan asarlarida ham borini-borday ayta olmaydigan, ehtiyotkorlik, yumshoqlikni tanlaydigan yozuvchilar xilidan ekan-da! Bunday xulosaga kelishimizga yana bir asos bor. ***“To'g'ri endi, rostgo'ylik modada. Ammo moda – o'tkinchi. Siyosatning buqalamundan farqi yo'qligini ko'rganmiz-da”*** [1:176], – deydi yozuvchi. Mazkur xulosa orqali qahramon o'z qarichiga xos bo'lgan hamma rost gapiraversa ham zamonga ishonib qolmaslik kerak, tilga ehtiyotkor bo'lish kerak mazmunidagi xufiyona qarashlarini bildirib qo'ymoqda. Achinarli jihat shundaki, siyosatni aldab, haqiqatni ayta olmay, boshqa yo'riq bilan yuradiganlar “buqalamun” emas ekan-u, siyosat “buqalamun” emish. So'z qudrati bilan insonlarga ta'sir qilish eng oliy vazifasi bo'lgan millat yozuvchisi shunday fikrlasa, endigina qo'liga qalam olmoqchi bo'lgan yosh iste'dodlar nima qilsin?! O'sha adabiyotni o'qiydigan millat nima qilsin?! Siyosatga ishonsinmi, kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muhitni doim alqab, olqishlab turgan “asarlar”ga ishonsinmi?! Hikoyaning eng og'riqli masalalaridan biri ham mana shunda, nazarimda. Endi esa bu toifa vakillari adabiyot ostonasiga endi kirib kelayotgan yosh iste'dodlarga “ustoz”lik qilishini bir tasavvur qiling-a. Uning oldida ikki yo'l bor: shogirdlarini o'z qarashlaridan kelib chiqib ma'lum bir chegaralarga asoslanadigan qilib tarbiyalaydi yoki bu iste'dodni butkul nobud qiladi. Yo'l-

yo‘lakay yozuvchi ana shunday qalam tebratishga ishtiyoqi so‘ngan sobiq shogirdi haqida so‘zlay ketadi.

Yozuvchining shogirdi g‘oyat iste’dodli, qalami o‘tkir ijodkor edi. Hattoki, ustozining o‘zi u qo‘llaydigan detallarni Qahhordan ham, Chexovdan ham topib bo‘lmasligini aytib maqtaydi. Shunday bo‘lishiga qaramay, shogirdning birorta asari nashriyotlarda bosilib chiqmadi. Tahririyat bosishga ruxsat berishganda ham, keyinroq asar rad etilib, e‘lon qilinmadi. Qayerga bormasin, omadi yurishmadi. Bularning barchasi o‘sha o‘zini o‘ta mehribon, oliyjanob ustoz hisoblaydigan yozuvchi “sharofati” bilan edi. Ustozda shogirdiga nisbatan hasadga o‘xshash g‘ayriinsoniy his bor edi, buni ilg‘ab olish kitobxonga havola qilgan. Sababi, Shukur Xolmirzayev qahramon nutqiy xarakteristikasini shu qadar mahorat bilan gavdalantiradiki, beixtiyor ustozning haqiqatan shogirdi uchun mehribon, jonkuyar ekan-da, degan xulosaga kelish mumkin. Ammo vaziyatga chuqurroq yondashadigan bo‘lsak, ustoz shogirdini qaysi nashriyotga tavsiya qilmasin, endi ijod mahsullari qabul qilinayotgan vaqti uning izidan ish ko‘radi. ***“Lekin ba’zi qaltis momentlari bor. Masalan, ayrim joylarda rahbar shaxslarga tegib ketgan. Raykom sekretarigayam... Demak, siyosatga!”*** [1:180], – deya tahririyatni go‘yoki xavfdan ogohlantirgan bo‘lib, shogirdi oyog‘iga o‘zi bolta uradi. Eng ajablanarlisi, esa shogirdiga bu haqda miq etmasdi. Shunchaki yana yozishda davom etishini, to‘xtamasligini uqtirardi. U suhbatning biror nuqtasida shogirdiga nisbatan xusumati yoxud hasadi borligini aytib o‘tmaydi, aksincha o‘zini-o‘zi yaxshi ustoz sifatida e‘tirof etadi. Biroq uning xatti-harakatlari asl yuzini ochib bergan deyish mumkin.

So‘zi boshqa, ishi boshqa bunday ikkiyuzlamachi shaxs qo‘liga tushgan shogirdning taqdiri xarob bo‘ldi. U endi yozmay qo‘ydi, ijod qilmay qo‘ydi. Aynan mana shu sahna orqali yozuvchi ustozning shogird faoliyatidagi, uning muvaffaqiyatga erishishi yoxud aksincha zavolga yuz tutishi ham tom ma’noda ustoz bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatib bermoqda. Ustozlik mas’uliyatini zimmasiga olgan shaxs, unga mos bo‘lish kerakligini, o‘quvchilari

yutuqlarini so'ndirmasligi, aksincha, qo'llab-quvvatlashi lozimligini uqtirmoqchi bo'lganday, nazarimda.

Vaziyatga boshqa tomondan yondashadigan bo'lsak, u shogirdi tufayli o'ziga gap tegishidan ham qo'rqardi. Haqiqatgo'y, **“markazqo'm ko'ziga cho'p solib yurgan arboblarni adabiyotga solib “uradigan”** yosh ijodkorning uslubini noto'g'ri deb biladi. Yozuvchi fikriga ko'ra, adabiyotda kimnidir tanqid qilish kerak bo'lsa, u ham oddiy xalq vakili bo'lgani ma'qul. Yoxud tinchgina “och qornim, tinch qulog'im” qabilida peyzajga, tabiat tasvirlariga murojaatni ko'paytirish kerak. Qahramonning o'zi suhbat asnosida hamrohiga: **“Shuning uchun men ko'proq peyzajga zo'r beraman, lirikaga zo'r beraman: bular beziyon mavzular. To'g'rimi? Ana shunday...”** [1; 178] kabi so'zlarni aytadi. Bunday qarashlarni ilgari suradigan ustozning etagini tutgan shogird taqdiri oxir-oqibat ayanchli yakun topdi. Mening nazdimda, jigar kasali emas, balki kimsasizlik, umidsizlik va omadsizlik shogirdni adoyi tamom qildi. Balki, ustoziga unga chinakamiga yordam qo'lini cho'zganda, yoziqlari e'lon qilinishida to'siq bo'lmaganda uning hayoti butkul boshqacha tus olishi mumkin edi. Mashhur yozuvchiga aylanib, ishlari yurishib ketishi, kasalidan tez va oson sog'ayishi mumkin edi. Hayratlanarlisi shundaki, bosh qahramon shogirdining o'limiga **“qo'rqqoq, vahimachi, vijdotsiz odamlar”** sababchi deb hisoblaydi. Aslini olganda, **“o'ta talantli bola-yu, ba'zan jindak, nima desam ekan, betgachoparlik odati bor”** deb so'nggi najot bo'lgan shifoxonaga ham shogirdini yomonlaydigan qo'rqqoq, **“Sizlarda hukumat odamlari kelib davolanadi”** deya oladigan vahimachi, vijdotsiz kimsa uning o'zi emasmi?! Qachongacha xatosi o'ziga ko'rinmaydi?! Qachongacha noto'g'ri e'tiqodda davom etadi?! Bu kabi savollar kitobxonning mazkur pesronajga nisbatan yanada kuchliroq nafratini uyg'otadi. Shukur Xolmirzayev ham aynan shunga ishora qilib hikoya so'ngida yo'lovchi hamroh tilidan quyidagi dialogni keltiradi:

“Men mashinani to'xtatdim.

- Tushing, domla!

- *E, nimaga?*
- *Men o‘lishni istamayman” [1; 187].*

Ushbu yakuniy sahnada yo‘l bo‘yi ustozning hikoyasini eshitib kelgan tinglovchi axiyri “portlaydi”. “Men o‘lishni istamayman” degan qat’iy ohang bilan yozuvchiga aslida kim aybdorligini uqtirmoqchiday bo‘ladi. Bu misra nafaqat qahramon tilidan, balki o‘quvchi kitobxon tilidan yangrab, “ustoz” nomiga noloyiq shaxsga nisbatan eng oliy hukmdan o‘qiladi, nazarimda.

Xulosalar

Shukur Xolmirzayev hikoyalariga nazar tashlar ekanmiz, ularda adib aksariyat zamondoshlarining realistik obrazlarini yaratganligiga guvoh bo‘lamiz. Unda qalamga olingan qahramonlar bilan siz-u biz har kuni duch keladigan oddiy insonlardir. Asarlardagi qahramonlar xarakteri, turmush tarzi, dunyoqarashlari hayotiyli bilan kitobxonlar e’tiborini jalb qiladi. Ular haqida fikr yuritishga, o‘rinli xulosa chiqarishga undaydi. Adibning “Ustoz” nomli hikoyasida ham inson muammolari, uning ichki olamidagi kamchiliklari va uning atrofdagilarga salbiy ta’siri ko‘rsatishini o‘tkir nigoh bilan ochib berilganligi bevosita kitobxonni muhokamaga chaqiradi.

Yozuvchi mazkur asari orqali ustozlikning mas’uliyatli vazifa ekanligi, uni suiiste’mol qilib kasbiga noloyiq ishlarni o‘ziga ep biladigan shaxslarni qoralaydi. Yozuvchilarning haqiqatni yashirib, yolg‘on bilan to‘lgan asarlariga nisbatan ochiqchasiga nafratini bildiradi. Ustoz shogirdining kamchiliklarini izidan emas, balki o‘ziga aytib tuzattirishi kerakligi, uni qo‘llab-quvvatlash, to‘g‘ri yo‘naltirish qanchalik muhimligini kitobxonga uqtiradi. Bundan tashqari, asar insonlarni bir-biriga beminnat yordam qo‘lini cho‘zishga chaqiradi.

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayevning hajman kichik, salmog‘i ulkan bo‘lgan “Ustoz” hikoyasi bugungi kun ustoz va murabbiylari uchun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xolmirzayev Sh. O'n sakkizga kirmagan kim bor. – Toshkent, Yoshlar matbuoti, 2023. – 237 b.
2. Xolmirzayev Sh. Ustoz – www.ilmlar.uz kutubxonasi
3. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2005. – 420 b.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent, Navoiy universiteti, 2018. – 487 b.
5. Karimov B. Ruhیات alifbosi. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 361 b.
6. Tavaldiyeva G.N. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida tabiat va inson munosabatlarining badiiy talqini. – Academic research in educational sciences (ARES), 2020, Volume 1, Issue 4, 1051-1059-b.